

ASPEKTOLOGIYAGA TEGISHLI AYRIM TADQIQOTLARNING QISQA TAHLILI*B.X. Rizaev¹**Annotatsiya:*

Maskur maqolada tillardagi zamon va aspekt kategoriyalari o'rganilgan. Muallif nemis va o'zbek tillarida zamon va aspektni ifodalash usullarini qiyosiy tahlil qilib, Renata Shchepanyak, Maykl Starke va Volfgang Klyayn tadqiqotlariga tayangan holda, nemis tilidagi perfekt shaklining grammatikalashuv jarayoni va temporal lokalizasiya bilan bog'liqligini ochib beradi. Shuningdek, S.T. Normatova va M.I. Begmatovaning o'zbek tilidagi grammatikalashuv jarayoniga oid tadqiqotlari tahlil qilingan. Maqolada zamon va aspekt kategoriyalarining til tuzilishidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aspektologiya, zamon va aspekt, temporallik xususiyatlar, temporal lokalizasiya, grammatikalashuv, tugallanganlik va jarayonlilik (prosessuallik), analitik fe'l shakllari, yordamchi fe'llar.

doi: <https://doi.org/10.2024/e2nvb991>

Turli tizimli tillarning aspektologiyasi bo'yicha yangiliklarni aks ettirgan tadqiqotlar zamon va aspekt kategoriyalarining grammatik va sintaksik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan. Qardosh bo'lmagan tillarda, xususan, nemis va o'zbek tillaridagi bu kategoriyalarni ifodalash usullari turli tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ushbu maqolada asosiy manbalarga tayangan holda aspektologiyaning muhim jihatlari tahlil qilinib, bu sohadagi ilmiy ishlarning dolzarbligi qayd etiladi.

Nemis tilidagi grammatikalashuv jarayoni muammolari bilan bog'langan Renata Shchepanyakning "Grammatikalisierung im Deutschen: Eine Einführung" (2014) asarida nemis tilidagi grammatikalizasiya jarayoni leksik elementlarning grammatik funksiyalarga aylanish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Asar nemis tilida leksik birliklarning grammatik ma'noga ega bo'lish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'lishini ko'rsatadi. Bu jarayon asosan predloglar va yordamchi fe'llar orqali rivojlanadi. Asarning nazariy va tarixiy tahlillari grammatikalashuvning tilning tuzilishiga qanday ta'sir qilishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Maykl Starke tahriridagi "The Syntax of Tense and Aspect" (2005) asarida nemis tilidagi zamon va aspekt kategoriyalari sintaktik tuzilmalar asosida o'rganilgan. Perfekt va preterit shakllarining aspektual ma'nolar bilan bog'liqligi, shuningdek, yordamchi fe'llarning temporal xususiyatlarini ifodalashdagi roli tahlil qilingan. Kitobda, shuningdek, turli mintaqalarda zamon shakllarining qo'llanishi va kelajak zamon konstruksiyalarining sintaktik jihatlari ham o'rganiladi.

Perfekt shakli nemis tilida faqat o'tgan zamonni ifodalovchi vosita emas, balki turli zamon va aspektual kategoriyalar bilan bog'liq ko'p ma'nolarni ham qamrab oladi. Volfgang Klyaynning tadqiqotiga ko'ra, ("How time is encoded." 2009) nemis tilidagi perfekt nafaqat o'tgan zamondagi tugallangan harakatlarni, balki hozirgi vaqtga ta'sir etuvchi yoki hozirgi vaqt bilan bog'liq holatlarni ham ifodalaydi. Muallif perfektning ikki asosiy jihatini o'rganadi:

¹ B.X. Rizaev, Samarqand davlat chet tillar instituti filologiya fanlari doktori, professor

1. Temporal lokalizasiya: V.Klyayn perfekt shaklini o'tgan vaqtda sodir bo'lgan harakat bilan cheklash mumkin emasligini ta'kidlaydi. Aksincha, bu shakl fe'lning hozirgi zamonga ta'sir etuvchi natijalarini ifodalaydi, ayniqsa, hozirgi jarayonlilik (prosessuallik) yoki natijaviy tugallanganlik muhim bo'lgan kontekstlarda.

1.Assotsiatsiya bilan bog'liqlik: Nemis tilidagi perfekt shakli tugallanganlik va prosessuallik kabi aspektual kategoriyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli kontekstlarda tugallangan harakatlarni ifodalasa ham, natijalari hozirgi vaqtda dolzarb bo'lishi mumkin degan fikrni yuritadi.

Volfgang Klyayn fe'llarning aspektual xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi lingvistikaning yo'nalishi bo'lgan aspektologiya sohasi bo'yicha katta hissa qo'shgan. Muallifning ushbu mavzuga bag'ishlangan mashhur ishlaridan bir nechta:

"Time for More Tense-Aspect Research" (2000) - Ushbu maqolada V. Klyayn zamon va aspekt masalalari bo'yicha tadqiqotlarning hozirgi holati haqida fikr bildiradi va qo'shimcha tadqiqotlar zarurligini ta'kidlaydi. U vaqt (tense) va aspektlar (aspect) o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tadqiq qilishga hali etarlicha e'tibor qaratilmaganligini ta'kidlab, bu sohani kengroq o'rganish zarurligini qayd etadi.

Maqolaning asosiy nuqtalari: (a) Vaqt (zamon) va aspektlar haqidagi mavjud nazariyalar va ularning turli tillardagi qo'llanilishiga umumiy nazar; b) Faqat grammatik aspektlarga emas, balki vaqtning tilda ifodalanishi va uning kognitiv mexanizmlariga ham ko'proq e'tibor berish zarurligi haqidagi fikrlar; v) Klyayn yangi tadqiqot yo'nalishlarini taklif qiladi, masalan, aspektlarni diaxronik kontekstda va bolalar tilida o'rganish, bu esa turli tillarda zamon kategoriyalarining qanday shakllanishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqola aspektologiya va vaqt (zamon) masalalari bo'yicha tadqiqotlarni jadal rivojlantirishga chaqiradi va bu sohada yangi usullar hamda yondashuvlarni taklif qiladi.

"Action, State, and Temporality in Language" (2009) - Ushbu asarida V. Klyayn tildagi harakatlar (events) va holatlar (states) o'rtasidagi farqlarga va ularning vaqtinchalik xususiyatlari (temporallik) bilan qanday bog'liq ekanligiga e'tibor qaratadi. Muallif harakatning vaqt bilan bog'liq xususiyatlari (masalan, boshlanishi, tugashi va davomiyligi) lingvistik tuzilmada muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Asar turli tillarda vaqt bilan bog'liq farqlar qanday ifoda etilishini o'rganishga qaratilgan.

"Aspectual Differences and their Determinants: Cross-linguistic Studies" (2010) - Bu asar turli tillardagi aspektual farqlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ya'ni turli tillarda vaqt aspektlari (masalan, harakatning tugallanishi yoki tugallanmaganligi) qanday ifodalanishini tadqiq qiladi. V. Klyayn ushbu maqolada aspektual farqlarning sabablari va ularning qaysi omillarga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratadi.

Asarda quyidagi mavzular ko'rib chiqiladi:

1) Fe'llarning leksik aspektlari, ya'ni fe'lning ma'nosida mavjud bo'lgan vaqt xususiyatlari (masalan, "yugurish" jarayoni yoki "qulamoq" kabi bir zumda sodir bo'ladigan harakat);

2) Grammatik aspektlar, ular grammatik vositalar orqali ifoda etiladi (masalan, o'tgan zamonda tugallangan vaqt);

3) Turli tillarda aspektual farqlarning qanday ifodalanishi va madaniy, kognitiv va lingvistik omillar bu farqlarga qanday ta'sir qilarligi.

V. Klyayn turli tillarni solishtirgan holda aspektual farqlarning asosida yotgan qonuniyatlarni aniqlashga harakat qiladi.

Nemis tilida perfektning grammatikalashuv jarayoni va perfekt shaklining rivojlanishini H.Toyberning tadqiqotlarida chuqurroq o'rganishga qaratilgan. U perfektning grammatikalizasiya jarayonini va uning tarixiy rivojlanishini tahlil qiladi. H. Toyber ta'kidlashicha, perfektning dastlabgi vazifasi natijaviylikni ifodalash bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan uning funksiyalari kengayib, o'tgan zamon shakli sifatida ishlatila boshlagan.

Muallifni ishlarida perfektning sintaktik va semantik xususiyatlari ham batafsil tahlil qilinadi. Bunda perfekt analitik shakl sifatida o'zining tarkibidagi yordamchi fe'l va o'tgan zamon sifatidoshidan (Partizip II) qamrab olishi, so'zlar tartibi, yordamchi fe'lning asosiy jumlada ikkinchi o'rinni egallashini, sifatdoshning jumla oxirida kelishi kabi sintaktik qoidalarni tushuntiradi. Muallif perfektning moslashuvchanligini ham ta'kidlaydi: u na faqat o'tgan zamonni, balki hozirgi vaqt (zamon) bilan bog'liq natijalarni ham qamrab oladi.

V. Klyayn va H. Toyber tadqiqotlari nemis tilidagi perfekt shaklining murakkab tuzilishi, bu shaklining semantik jihatdan ko'pqirraliligi va uning grammatikalizasiya jarayonini teran tushunish imkonini beradi.

Nemis va o'zbek tillarida zamon va aspektning ifodalash usullarini o'rganish tillarning dinamikasini tushunishda katta ahamiyatga ega.

O'zbek tilidagi zamon va aspekt ma'nolari bilan bog'lik bo'lgan analitik fe'l shakllari S.T. Normatovaning "Аналитические глагольные формы в узбекском языке" (2005) asarida ko'rib chiqilgan. Bu ish o'zbek tilidagi analitik fe'l shakllarining tuzilishi va grammatik vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan. Asar o'zbek tilidagi analitik shakllarning turli ko'rinishlarini tasniflab, zamon, zalog va aspekt kabi grammatik kategoriyalarni ifodalashdagi rolini chuqurroq o'rganadi. S.T. Normatovaning ishi o'zbek tilidagi yordamchi fe'llar va ularning fe'lli tuzilmalardagi vazifalarini ko'plab misollar bilan tushuntiradi.

O'zbek tilidagi grammatiklashuv hodisasi bilan bog'liq muammolar M.I. Begmatovaning "Грамматикализация аналитических форм в узбекском языке" (2009) asarida sinchiklab o'rganilgan. Muallif leksik unsurlarning grammatik vazifalarga aylanish jarayonini va uning bosqichlarini tahlil qiladi. M.I. Begmatova yordamchi fe'llarning o'zbek tilidagi rivojlanishi va ularning grammatik funksiyalarni bajaruvchi vositalarga aylanish jarayonini chuqur o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Begmatova M.I. *Grammatikalizasiya analiticheskix form v uzbekskom yazike*. Tashkent: Fan, 2009.
- [2]. Klein, Wolfgang. *Action, State, and Temporality in Language*. In P. Bos (Ed.), *Language and Temporality* Cambridge University Press. - 2009. pp. 85-110.
- [3]. Klein, Wolfgang. *Time for More Tense-Aspect Research*. *Linguistics*, 38(4), 2000. pp.747-762.
- [4]. Klein, Wolfgang. *Aspectual Differences and their Determinants: Cross-linguistic Studies*. In R. Binnick (Ed.), *The Oxford Handbook of Tense and Aspect* Oxford University Press. - 2010. pp. 300-319.
- [5]. Klein W. "How time is encoded." //, *The Expression of Time in Language*, Oksford: Oxford University Press, 2009. pp. 39-82.
- [6]. Normatova S.T. *Analiticheskie glagolnie formi v uzbekskom yazike*. Tashkent: Fan, 2005.
- [7]. Szczepaniak, Renata. *Grammatikalisierung im Deutschen: Eine Einführung*. - Berlin: Erich Schmidt Verlag, - 2014.
- [8]. Starke M. (Red.). *The Syntax of Tense and Aspect: Theoretical and Cross-Linguistic Perspectives*. - Oksford: Oxford University Press, - 2005.
- [9]. Toiber H. *Periphrastic Constructions in the History of German: Aspect, Tense and Grammaticalization*. Berlin: Walter de Gruyter, 2010.
- [10]. Teuber O. *Analytischen Verbformen im Deutschen. Syntax – Semantik – Grammatikalisierung*. - Hildesheim Zürich New York: Georg Olms Verlag. 2005.
- [11]. Ламунов, А. (2023). *Phase in general linguistics. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 126–128. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp126-128>